

**SAMARQAND VILOYATIDAGI G’O’ZA NAV VA LINYALARING  
UNUVCHANLIGIGA EKISH ME’YORLARI VA YOG’INGARCHILIKNING  
TA’SIRI**

***Ulug’murodova Yulduz Abdulkoshimovna***

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Biokimyo instituti tayanch doktarant*

*Abdulkoshimovna97@gmail.com*

***Sanakulov Akmal Lapasovich***

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat*

*universiteti Biokimyo instituti proffessori*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda iqlim sharoitlarining keskin o‘zgarishi va qurg‘oqchilik sharoitida, dala ekin maydonlari zarar ko‘rmoqda . Paxtachilikda ham kuzatilayotgan muammolardan yaqqol misol qilib qurg‘oqchilik sharoitida bahor mavsumlarida ketma ket haftalab yomg‘ir yog‘gandan keyin g‘o ‘za va linya maysalarning chirishi kuzatiladi va buni oldini olish va chirishga chidamli navlarni ekish muhim masalalarga aylandi. G‘o‘za chinbarg chiqargunga qadar boshlang‘ich davr sanalib suvni kam talab etadi ayniqsa tuksiz chigit navlari, tukli chigit navlariga nisbatan chirishga moilligi yuqori bo‘ladi. G‘o‘zani ekishda agrotexnik tadbirdan oqilona foydalanish g‘o‘zaning kelgusida hayotchaniligi, unuvchanligi va hoslidorligiga ahamiyati yuqoridir.

**Kalit so‘zlar:** G‘o‘za, chinbarg, iqlim, yog‘ingarchilik, tuksiz chigit, nav, linya

Hozirgi davrda g‘o‘za hosildorligining oshishiga salbiy ta’sir qilayotgan omillardan biri, vegetasiya davri davomida yuzaga kelayotgan suv taqchilligi bo’lsa, ikkinchi, aksariyat fermer xo’jaliklarida g‘o‘zani sug’orishda mahaliy tuproq va gidrogeologik sharoitlarni, uning o’sishi va rivojlanitirishning o’tish fazalari davrida suvga bo’lgan haqiqiy talablarining hisobga olinmaslidir.

Egatlab sug’orish jarayonidagi tuproqqa solinayotgan o’g’itlarning, begona o’tlar va hashoratlarga qarshi qo’llanilayotgan zaharli kimyoviy moddalarning bir qismi yer osti suvlariga yuvilib tushib, ularni ekologik-meliorativ holatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Yuqorida keltirilgan sabablar, sug’orilayotgan yerlarga ajratilgan suv zahiralaridan samarali foydalanishni, Ekologik vaziyatga salbiy ta’sir etimaydigan agrotexnologik tadbirlar tizimini, sug’orish usullari va tajribalarini ilmiy asoslanishni taqoza etmoqda.

Paxtachilikda, g‘o‘za yetishtirish texnologiyasi har bir dehqonchilik mitaqasi uchun tuproq-iqlim sharoitiga mos bo’lishi kerak. Ayniqsa, g‘o‘zani har bir navini joylatirishda uni ma’lum bir tuproq-iqlim sharoitiga mos ravishda takomillatirib borish

zarur. Shunday agrotexnik tadbirdan biri, g’o’zani yerni tayyorlab ekish qatqaloqdan chiqarish va sug’orish tizimlarini boshqarish bo’lib, uning nav xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o’rganishning muhim amaliy ahamiyatga ega bo’lib, ushbu masala ham dolzarb hisoblanadi.

O’zbekiston dunyoda eng shimoliy paxtachilik mintaqasi bo’lishiga qaramay, mamlakatimiz seleksioner olimlarining samarali mehnatlari maslijda keyingi yillarda tezpishar, serhosil va tola sifati yuqori bo’lgan g’o’za navlarini yaratishda jahonda yetakchi o’rnlarni egallamoqda. Shuning uchun yangi rivojlatirishgan va istiqbolli navlarini parvarishlashni o’ragnish kerak.

Respublikamizda tezpishar, sifatli tola olish uchun va mo’l hosil yetishtirish uchun har bir viloyatda, tumanda faqat shu hudud tabiiy iqlimi, tuprog’i, meliorativ va gidrogeologik sharoitlariga qarab, ya’ni tuproq tip-turlari bo’yicha yangi rayonlagan, istiqbolli o’rta tolali g’o’za navlarini o’ziga xos parvarishlash agrotabirlar tizimini mukammal, uslubiy qo’llari o’tkazish asosida ishlab chiqish zarur. Aynan shu hududularda yuqori va sifatli hosil beradigan Ertapishar, istiqbolli yangi g’o’za navlarini tanlab olish va ularni mintaqalar, viloyatlar, tumanlar, fermer xo’jaliklarida ilmiy asoslangan parvarishlash agrotadbirlari tizimini yaratish va amaliyatga joriy etish, yangidan tayyorlangan ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimlariga mintaqalar, viloyatlar, tumanlar bo’yicha kiritish paxtachilikda o’z yechimini ko’tayotgan o’ta muhim muammolardan hisoblanadi.

G’o’zada fiziologik jarayonlarning me’yorida borishini, uning o’sishi va rivojlanishi bosqichlaridagi biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda suv bilan ta’milanishi muhim ahamiyatga ega. Biroq g’o’zaning sug’orish me’yorlari va vaqtin menzili bo’linishi qarab aniqlanadi. Bunda g’o’zaning rivojlanish jarayonlari uchta shartli bosqichga bo’linadi. Birinchi bosqich - chigitning unib chiqishidan, gullash fazasigacha; ikkinchi bosqich - gullash va meva hosil qilish fazasi; uchinchi bosqich - paxtaning pishish fazasi. Birinchi faza g’o’zaning yer ustki qismini jadal o’sishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi fazada esa vegetativ organlar elementlarining yanada o’sishi, meva organlarining shakllanishi va ko’saklaming hosil bo’lishi kuzatiladi. Uchinchi faza ko’saklaming yetilish va pishishi bilan tugallanadi. G’o’zaning o’sishi va rivojlanishini bunday bosqichlarga ajratish, uning suvga bo’lgan talabidan kelib chiqadi. Chunki, vegetatsiya bosqichlarining har bir davrida suvga talab har xil boladi.

Tajriba dalasining agrokimyoviy tavsifi, haydalma (0-30 sm) qatlamdagi gumus I.V.Tyurin (1983), yalpi azot, fosfor, kaliy I.M.Malseva va L.P.Grisenko (1983) hamda nitrat azoti Grandval-Lyaju, harakatchan fosfor V.P.Machigin (1983), almashinadigan kaliy P.V.Protasov (1983) bo’yicha aniqlandi;

Urug’larning dala unuvchanligi, o’simliklarning hosilni yig’ishtirishgacha saqlanishi, tup qalinligi, toq qaytariqlarda  $1\text{ m}^2$  maydonchada aniqlandi.

Ilmiy tadqiqodimiz g‘o‘za nav va tizlamalarining Samarqand viloyati Payariq tumani tuproq iqlim sharoitlariga moslarini ajratib, ularni ekishga tayyorlashdan to hosilni yig‘ib olguncha bo‘ladigan davrdagi biometrik va fiziologik tajribalarni o‘tkazishdan iborat.

Samarqand viloyati Payariq tumani tajriba maydon tuproqlarda 0-25 qatlama chirindining miqdori 1,20 %, yalpi azot 0,12 %, harakatchan nitrat azoti 18,5 mg/kg, fosfor 0,21 %, harakatchan P2O5 – 24,0 mg/kg, yalpi kaliy 1,64 %, almashinuvchan kaliy – 245 mg/kg ni tashkil etadi. Tuproqning chuqurroq 25-50 sm qatlamlarda esa harakatchan nitrat azoti, fosfor kamayib borsa, almashinuvchan kaliy ko‘payib boradi. Huddi shunday tuproqning hajm og‘irligi ham oshib boradi.

G‘o‘za nav va linyalarining unib chiqishi va chinbarg hosil aqilish davrlari

	Afs ona	Zar af shon	C- 27	Om ad	Afs ona tuks iz	Sult on-R1 tuksi z	Guls han tuksi z	UZ FA tuks iz	Lin ya-1	Lin ya-2	Lin ya-3	Buxo ro-102
Yerga qadas h	9.04	9.04	9.04	9.04	09.04	09.04	09.04	09.04	22.04	22.04	22.04	9.04
Unib chiqis hi	18.04	19.04	19.04	18-19.04	19.04	19.04	19.04	20.04	29.04	30.04	30.04	20.04
Chinb arg chiqarish	8.05	10.05	9.05	10.05	11.05	09.05	11.05	11.05	18.05	18.05	18.05	10.05

Tajriba uchun olingan navlar tukli va tuksiz chigitli va linyalardan iborat. Tanlab olingan navlar aprel oyining birinchi dekadasida yerlarni tayyorlab urug‘larni yerga qadadik. Chigitlar aprel oyining ikkinchi dekadasasi oxiri , uchinchi dekadasasi boshigacha to’liq chiqdi. Yomg‘ir ko‘p bo‘lib yog‘ingarchilik yuqoriligi sababli ikki marta qatqaloq qilindi, davrda tuksiz ekilgan navlarda chinbarggacha maysalarning 1/10 qismi chirib nobud bo‘ldi. May oyining birinchi dekadasasi oxiriga kelib chinbarg chiqara boshladи, eng birinchi 8-aprelda Afsona tuksiz navimiz oxiri ikinchi dekadasasi yarmida linya-3 chin barg chiqardi.

Tuksiz navlarda unib chiqqandan keyin chirish holatlari ko‘p kuzatildi 1\10, hududga mos ravishda tukli chigitlardan ekish maqsadga muvofiq hosilga ham kamroq zarar yetadi, Payariq tumaniga Afsona , C-278, Sulton-R1 navlari qatqaloqdan kam zarar ko‘rib , biometrik ko‘rsatkichlari yuqoriroq chiqgqnligini kuzatdim.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Беспалов Н.Ф., Домуллажанов Х.-Слагаемые оптимальные режимы орошения. Хлопководство. №6, 1987,
2. Abdukarim Zikiryayev Goza fiziologiyasi va biokimyosi. Toshkent-2020.42-43-bet

